

TILSHUNOSLIKDA LINGVOPRAGMATIK YONDASHUVNING
TUSHUNCHA VA TAMOYILLARI

Valiyeva Dildora Kamalovna

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Lingvistika (ingliz tili) yo'nalishi 22-32-guruh magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilning jamiyat va shaxs hayotidagi o'rnini, uni egallashda va undan to'g'ri foydalanishda inson amaliy faoliyatining xususiyatlari, ijtimoiy va tabiiy muhit sharoitlari ifoda etilgan. Shu bilan birga maqola bilan tanishgan o'quvchi pragmatika haqida ham boshlang'ich bilimlarga ega bo'ladi.

Kalit so'zlar: Til, nutq, lisoniy belgilar, semantika, pragmatika, interpretant, reprezentamen, kommunikatsiya.

Til doimo inson hayoti uning ijtimoiy faoliyati bilan uzviy bog'langan holda rivojlanadi va taraqqiy etadi. Til va hayot o'rtasidagi voqelik hech qachon uzilib qolmaydi. Insoniyat muloqotga ehtiyoj seza boshlagan ongdan til shakllangan. Lisoniy belgilar orqali fikrni tinglovchiga yetkazishga uringan dastlabki inson ham tilning rivojiga o'zining o'sha harakati bilan hissa qo'shib kelgan. Demak bugungi kunda takomillashayotgan tilni insondan uzib o'rganib bo'lmaganidek, muloqot jarayonida shaxs holatini ham hisobga olmaslik fikr maqsadini to'la ochib berolmaydi. Shu nuqtai nazardan semantika bag'ridan alohida bo'lib chiqayotgan "yosh va navqiron" pragmatika lisoniy belgilar va uning ifoda shakli orasidagi munosabatlarni tikladi va o'rganayapti. Ma'lumki, tilning amaliy faoliyati nutqiy faoliyatda yuzaga chiqadi. Holbuki, bunda so'zlovchi boy lisoniy bilim zahirasiga ega bo'lishi va undan kerakli o'rinlarda foydalana olish qobiliyatini ham shakllantirmog'i zarur. Shaxs tafakkuri, milliy qadriyatlari, madaniyati, urf odatlari, ruhiy olami so'zlar orqali fikrda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham rivojlanayotgan asrimizda tilning jamiyat va shaxs hayotidagi o'rnini va ahamiyatini o'rganmay turib, tilga to'g'ridan to'g'ri nazariyalarni yuklagan holda yondashib bo'lmaydi. Rus lingvofaylasufi G.V.Kolshanskiy lisonning sub'yektivligi haqida shunday deydi: " Til alohida shaxsning, insonning butun insoniyatning fikrlash qobiliyati alomatidir va shu sababli o'z tizimi va strukturasi inson tomonidan olamni o'zlashtirilishining barcha xususiyatlarini, inson amaliy faoliyatining xususiyatlarini ijtimoiy va tabiiy muhit sharoitlarini ifoda etadi.... Til ob'yektiv va sub'yektivdir, u o'z mohiyati bilan ikki tomonlama substansiya bo'lib, bir paytning o'zida borliqqa va insonga yuzlanadi. "

Dastlab til tizimining pragmatikadan uzilgan holda o'rganilishi bu pragmatikaning yangi paydo bo'lgan soha sifatida qarashga asos bo'lmaydi. Chunki tilda uzilgan pragmatika yoki pragmatikadan uzilgan til bo'lmaydi. Til va inson bir biri

bilan chambarchas bo‘lgani holda , lison so‘zlovchining shaxsiy hohishi, ehtiyoji uchun xizmat qiladi. Inson ijtimoiy muhitda muloqot vaziyatining ishtirokchisi bo‘ladi. Shu sababli pragmatik struktura ham doimiy o‘zgarib murakkablashib boradi.

“Pragmatika ”- yunoncha ish, harakat ma’nolarini bildirib aslida bu tushunchaga nisbatan falsafiy qarash Suqrot davrlaridan ham oldinga borib tarqaladi. Dastlabki yunonlar orasida keng iste’molda bo‘lgan bu termin, keyinchalik J.Lokk , E.Kant kabi tilshunoslarning qarashlarida kuzatiladi. XIX-XX asrlarda taraqqiy eta boshlagan pragmatizm g‘oyalari 20-30 yillarda barcha til sohalariga keng targ‘ib qilina boshlandi. Dastlab, Amerika va Yevropada keng targ‘ib qilingan pragmatika rivojida Ch.Pirs, R.Karnal, Ch. Morris , L. Vitgenshteyn qarashlarini ta’kidlamog‘ joiz. XX- asrning 30-yillarida Ch. Morris tomonidan fanga kiritilgan pragmatika atamasi tilshunoslikda yangi tadqiqot ob’yekti sifatida yuzaga keldi.

Ch.S.Pirs g‘oyalari bilan kuchaytirilgan pragmatikaning tilshunoslik tadqiqoti doirasi sifatida ajralib chiqishi va shakllanishi 60-yillarning oxiri va 70-yillarning boshlarida J.Ostin, J.R.Syorl, P.F.Strososon va boshqalarning nutq hodisalari mantiqiy-falsafiy teoriyasi ta’siri ostida boshlangan.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Amerikada hukmron bo‘lgan falsafiy pragmatizm yo‘nalishining asoschilaridan biri Charlz Sanders Pirs (1839-1914) edi. Ushbu falsafiy tizimning asosiy g‘oyasi semiotik belgining (shu jumladan, lisoniy belgining ham) ma’no-mazmunini ushbu belgi vositasida bajarilayotgan harakatning samarasi, natijalari, muvaffaqiyati bilan bog‘liq holda o‘rganishdir. Bu tamoyil muallifi Ch. Pirs birinchilardan bo‘lib, belgi nazariyasi doirasida kommunikativ faoliyat sub’yekti omilini inobatga olish lozimligini uqtiradi.

Ch.Pirsning talqinicha, belgining munosabat maydoni uch yo‘nalishdan iborat:

- 1) belgi, aniqrog‘i - reprezentamen, biror narsaning o‘rnini almashtiruvchi moddiy ko‘rinishga ega bo‘lgan vosita;
- 2) idrok etuvchining ongidan o‘rin olgan va belgining tavsifini beruvchi vosita - interpretant;
- 3) belgida aks topayotgan – ob’yekt.

S. Pirs va semiotikani yoqlovchilar belgilarning kommunikativ aloqasini ta’kidlaydi. Charlz Morris esa semiotikani yana sintaktika, semantika va pragmatikaga ajratadi. Bunda pragmatika belgilar va uni talqin qiluvchi o‘rtasidagi munosabatni anglatadi.

Pragmatika til belgilarining nutqdagi harakatini o‘rganuvchi tilshunoslikning tadqiqot doirasi bo‘lib, nutqiy muloqot rivojida asosiy o‘rin tutadi. Lingvistik pragmatika aniq shaklga ega emas. Uning tarkibiga so‘zlovchi va tinglovchiga, ularning nutq jarayonidagi o‘zaro munosabatiga bog‘liq masalalar majmui kiradi.

Pragmatikaning tilshunoslikka munosabati haqida fanda xilma-xil qarashlar mavjud. Ayrim tilshunoslar, chunonchi, V. Dressler «Pragmatika tilshunoslikka

aloqador emas» deb yozadi [37, 18-19b]. Lekin pragmatikani tilshunoslikdan batamom uzadigan olimlar sanoqli. Ularning ko'pchiligi pragmatikaga tilshunoslikning bir oqimi, yo'nalish maktabi - serqirra til va nutq jarayonlarining alohida bir qirrasini o'rganishga va tavsif etishga ixtisoslashgan deb biladi. Pragmatikani tilshunoslikning bir sohasi deb talqin qiluvchi olimlar ham «Pragmatika nima? Uning tadqiq manbai nimadan iborat? U serqirra nutq faoliyatining qaysi jihatlarini o'rganadi?» degan savollarga turlicha javob beradilar. Ayrim tilshunoslar pragmatikani lisoniy vositalarining qo'llanilishida, matndagi munosabatlarga bog'liq ravishda o'rganuvchi fan deb hisoblasalar, boshqalar uni ko'zlagan maqsadni qo'lga kiritish uchun lisoniy vositalardan foydalanish usullari deb tushunadilar. Bundan tashqari, pragmatikaning semantik informatsion talqini ham mavjud bo'lib, unda pragmatikaning tadqiq manbai aloqa - aralashuv jarayonining amaliy natijasi, maqsadi va uning amaliy samarasidadir deb baholaydilar. Qanday bo'lmasin, pragmatika yuqorida sanab o'tilgan har uch talqinga ko'ra, u nutq jarayoni bilan uzviy bog'liq holda ko'riladi va tilshunoslik faniga bevosita aloqador hisoblanadi. Pragmatika tilshunoslikning bir tarmog'i, aniqroq qilib aytganda, nutq birliklarining nutq jarayonida boshqa nolisoniy vositalar bilan birgalikda qo'llanilishini, uning samaradorligini o'rganuvchi fan tarmog'i, oqimidir.

Pragmalingvistika haqida bildirilgan fikrlarda tilshunos J.Lyonz shunday deydi: “ Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan axborotni huddi so'zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo'llanilishini tavsiflaydi. Bu pragmatika lisoniy vositalarning shaxslararo muloqotdagi rolini aniqlash bilan shug'ullanadi. Ko'rinadiki , kommunikatsiyada muloqot boshqaruvchisi bo'lgan so'zlovchi ko'zlagan maqsadi va unga erishish yo'lida insonning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanadi va tinglovchiga ta'sir o'tkazadi. Masalan, darsingni qilmaysanmi? (Darsingni qilgin!), Kitobni yirtding? (Nima uchun yirtasan?) kabi gaplarda so'zlovchi so'roq berish orqali tinglovchidan axborot olishni ko'zlamaydi. O'z munosabatini so'roq ohangida tinglovchiga singdirishga urinadi. T.V.Kolshanskiyning ta'kidlashicha, so'zlovchi subyekt his-tuyg'ulariga xos xususiyat belgilardan ajralgan ma'lum bir axborotni ifoda etishi mumkin emas. Nutq mazmuniga hamohang his-tuyg'u va barcha baholar konkret tinglovchiga qaratilgan bo'ladi. Ana shu tinglovchi uchun qaratilgan subyekt nutqiga xos munosabat belgilari-nutqidagi barcha bo'yoqlar yaxlit tarzda pragmatika deb nomlanadi. Demak, kommunikatsiya jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'lgan pragmatikani o'rganish uni faqat lisoniy tomondan tahlilga tortish bilan birga mantiqiy va falsafiy, sotsial qarashlarni ham o'zida jamlaydi. Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, etika-estetika va boshqa fanlar nutq tizimining alohida-alohida olingan tarkibiy qismlari bo'lgan elementlarni shu tizimidan ajratib, ushbu ajratib olgan elementini o'xshashlik (bir xil mavqeda qo'llay olish) tamoyili asosida tahlil qiladi. Pragmatika shunday turli tizimlarga mansub bo'lgan insoniy faoliyatning

bir ko‘rinishi bo‘lgan diskursda mana shu elementlarning bir butunligi, bir mikrosistema sifatida voqelanishini o‘rganadi.

Nutqiy muloqot jarayonida so‘zlovchilar tomonidan tilning qo‘llanilishi va so‘zlovchilarning pragmatik bilimlarini birlashtiruvchi sifatida pragmatika stilistika ritorika, nutq faoliyati, nutq nazariyasi va tipologiyasi, sotsiolingvistika, psixolingvistika va shu kabi doiralarda uzoq o‘rganilish tarixiga ega bo‘lgan ko‘plab muammolarni qamrab oldi. Ko‘plab fanlarning kesishish nuqtasida turar ekan, pragmatika nutq va axloqiy, insoniy xatti-harakat, ruhiy faoliyat bilan doimo bog‘liq bo‘lib keladi. Pragmatika struktur tilshunoslik, stilistika, nutq madaniyati, poetika va lingvopoetika, psixolingvistika, etika va estetika kabi fanlar bilan, umuman insonning ongli va ongsiz madaniy va tabiiy xatti-harakati bilan bog‘liq bo‘lgan, kulturologiya umumiy nomi bilan birlashadigan fanlarning barchasi bilan yaqin aloqada bo‘ladi. Ammo ularning birortasi pragmatikaning o‘rnini to‘la-to‘kis bosa olmaydi.

Lingvopragmatika tilshunoslikda o‘rganilayotgan yangi soha bo‘lganligi uchun uning kategoriyalari, birliklari haqida umumiy tushunchalar hali to‘liq shakllanmagan. Shunday bo‘lsa ham L. A. Kiselyovanning har qanday tadqiqot obyekti ma‘lum lingvistik birliklar sistemasidan iborat ekanligi haqidagi fikriga tayangan holda pragmalingvistik xususiyatlarni o‘zida aks ettiruvchi pragmalingvistik birliklar sifatida pragemma va informema muloqotda foydalaniladi. Shu kunga qadar pragmatika borasida turli qarashlar olg‘a surilgan bo‘lsa-da, ammo ularning hech biri pragmatika, uning predmeti, obyekti kabi tushunchalarni tugal ochib berolmagan. Lingvopragmatika bevosita kommunikatsiya jarayoni bilan uzviy bog‘lanishda ekan, ijtimoiy hayotning kengayishi natijasida uning tadqiq jarayoni ham yangi tushuncha va qarashlar bilan boyib, pragmatikaning ichida o‘rganilishi kerak bo‘lgan bir qancha tarmoq sohalari shakllanishiga zamin yaratadi. Nutqiy akt nazariyasi, deysis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika kabilar shular jumlasidandir. Lingvopragmatikaning xususiy masalalari doimiy nutq ishtirokchilari va nutqiy muloqot bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun pragmatika haqidagi turli qarashlar quyidagi umumfikrga birlashadi:

1. Lingvopragmatika sohasida olib borilgan barcha tadqiqotlarda til, inson, nutqiy faoliyat tushunchalari o‘rganilgan va faoliyat tushunchasiga alohida yondashilgan;
2. Kommunikatsiya jarayonida til faqatgina aloqa-aralashuv vositasi bo‘lib qolmay, adresantlarning muloqotda dinamik xarakterdagi munosabatini ham ifodalashi o‘rganilgan;
3. Til birliklarining nutqiy vaziyat bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatda istalgan uslubga xoslana olishi bilan ifodalangan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, til foydalanuvchisining muloqot jarayonida qanday vositalardan foydalanishi va ularni to‘g‘ri ishlata olishi nutq ishtirokchilarining madaniyatiga ham bog‘liq. Til, inson, nutq faoliyati bir biri bilan uzviy bog‘langan tushunchalar bo‘lib, ulardan biri mavjud bo‘lmagan holda samarali nutqiy muloqotni tashkil qilib bo‘lmaydi.